

**ELEKTRON TIJORATDA SUN'YI INTELLEKTDAN  
FOYDALANISHNING HUQUQIY JIHLTLARI**

**Zebo Shamsiyeva Sirojiddin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada elektron tijoratda sun'iy intellektdan foydalanishning xususiy-huquqiy muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida elektron bitimlarning huquqiy tabiati, platforma operatorining javobgarligi, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish rejimi, algoritmik shaffoflik va zarar uchun javobgarlikning taqsimoti turadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yangi o'zgarishlar, xususan elektron tijorat, shaxsga doir ma'lumotlar va sun'iy intellektni tartibga solishga oid hujjatlar YI huquqi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif elektron tijoratda sun'iy intellektni alohida huquq subyekti emas, balki shartnoma tuzish va bajarishda qo'llaniladigan texnologik instrument sifatida baholashni taklif etadi. Ilmiy yangilik platforma javobgarligini "nazorat va iqtisodiy manfaat" mezoni asosida aniqlash, shuningdek "funktional shaffoflik" va "ma'lumotlar bo'yicha ehtiyotkorlik majburiyati" kabi kategoriyalarni xususiy huquq doirasida tizimlashtirishda namoyon bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** elektron tijorat, sun'iy intellekt, shartnoma huquqi, platforma javobgarligi, shaxsga doir ma'lumotlar, algoritmik shaffoflik, iste'molchi huquqlari, raqamli platformalar.*

**KIRISH**

Elektron tijoratning zamonaviy modeli endi faqat masofadan sotish texnikasi bilan cheklanmaydi. Elektron savdo platformalari, buyurtmalar agregatorlari, raqamli striming xizmatlari, reyting va sharh tizimlari, tavsiya algoritmlari, dinamik narxlash, skoring va firibgarlikni avtomatik aniqlash vositalari bitim tuzilishidan tortib, uni bajarish va nizoni hal etishgacha bo'lgan butun zanjirga

ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni elektron tijoratni axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdi sifatida belgilaydi, operator tushunchasini esa elektron hujjatlar va xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs sifatida ifodalaydi.<sup>1</sup>

Fuqarolik kodeksi fuqarolar va yuridik shaxslarning shartnoma tuzishdagi erkinligini tan oladi hamda majburiyat huquqining umumiy mexanizmlarini belgilaydi<sup>2</sup>. Biroq bu mexanizm tarixan inson tomonidan ifodalangan iroda, aniq oferta va aksept, xato, ayb, ehtiyotkorlik, lozim darajadagi axborot berish va zarar bilan sababiy bog'liqlik kabi klassik kategoriyalarga tayangan. SI vositalari orqali tavsiya qilingan mahsulot, avtomatik shakllantirilgan narx, chatbot orqali yuborilgan shartlar yoki algoritm asosida bloklangan tranzaksiya ana shu klassik kategoriyalarni yangicha mazmunda talqin qilishni talab etadi. Ayniqsa, iste'molchi va platforma o'rtasidagi axborot nomutanosibligi kuchaygan sari shartnoma erkinligi bilan iste'molchining zaif tomonini himoya qilish o'rtasidagi muvozanat qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi<sup>3</sup>.

Maqolaning dolzarbligi yana shundaki, O'zbekistonda 2024–2026-yillarda SI va elektron tijoratni tartibga solish bo'yicha normativ baza yangilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yilgi 885-sonli qaror elektron savdo platformalari faoliyatini, jumladan sharhlar, reytinglar, eskrou,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son Qonuni "Elektron tijorat to'g'risida" <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Birinchi va ikkinchi qismlar. <https://lex.uz/docs/-111189>  
<https://lex.uz/docs/-180552>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 221-I-son Qonuni "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4704>.

monitoring va nizolarni onlayn hal etish mexanizmlarini rivojlantirishni nazarda tutadi<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilgi PQ-358-son qaror bilan SI texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.<sup>5</sup>

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonun esa sun’iy intellektni qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish, SI tushunchasini qonun darajasida belgilash va SI yordamida shaxsga doir ma’lumotlarga qonunga xilof ishlov berish uchun ma’muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi o‘zgartishlarni kiritdi.<sup>6</sup> Shu bilan birga, Yida AI Act, GDPR va Digital Services Act raqamli platformalar va algoritmik tizimlarga nisbatan riskka asoslangan, shaffoflikka yo‘naltirilgan va hisobdorlikka tayanadigan yondashuvni shakllantirdi.<sup>7</sup>

Mazkur maqolaning maqsadi elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy rejimini xususiy huquq nuqtayi nazaridan tizimlashtirish, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud asoslarni aniqlash, qiyosiy manbalar yordamida muammoli nuqtalarni ko‘rsatish hamda shartnomaviy risk va javobgarlikni adolatli taqsimlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## **METODOLOGIYA.**

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. <https://lex.uz/uz/docs/-7282643>.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-7158604>.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonuni “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”. <https://lex.uz/uz/docs/-8008401>.

<sup>7</sup> Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). EUR-Lex / European Commission <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng>, Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>, Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market for Digital Services (Digital Services Act). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj/eng>.

Tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi uch asosiy metod qo'llanildi. Birinchidan, normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining elektron tijorat, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsga doir ma'lumotlar, elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo hamda sun'iy intellektni tartibga solishga oid hujjatlari o'rganildi. Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy usul asosida YI huquqidagi AI Act, GDPR va DSA mazmuni bilan taqqoslash o'tkazildi. Uchinchidan, doktrinal tahlil yordamida algoritmik shaffoflik, ma'lumotlar bo'yicha ehtiyotkorlik majburiyati, platforma javobgarligi va isbot yuki kabi kategoriyalar qayta talqin qilindi.

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u bir tomondan amaldagi normativ bazani aniq ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa elektron tijoratda SI qo'llanishi tufayli paydo bo'layotgan yangi xususiy-huquqiy risklarni umumiy fuqarolik-huquqiy mexanizmlar bilan bog'lash imkonini beradi. Tadqiqot empirik-statistik tekshiruvga emas, balki normativ va konseptual tahlilga tayanganligi sababli, xulosalar qoida ishlab chiqish va shartnomaviy modellashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega.

### **MUHOKAMA**

Elektron tijoratda SI ko'pincha tavsiya tizimi, narxni shakllantirish moduli, avtorizatsiya filtri, chatbot, reklama targeting mexanizmi yoki firibgarlikni aniqlash vositasi sifatida ishlaydi. Bunday tizimlar bitimning iqtisodiy mazmuniga kuchli ta'sir qilishi mumkin, biroq bu ularni mustaqil huquq subyektiga aylantirmaydi. Xususiy huquq nuqtayi nazaridan SI shartnoma tarafining o'rnini bosuvchi emas, balki uning irodasini texnik shaklda amalga oshiruvchi instrument sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Chunki shartnomaning yuridik oqibati

algoritmga emas, uni joriy etgan, sozlagan, undan manfaat ko‘rgan va foydalanuvchiga taqdim etgan subyektga bog‘lanadi.

Shu nuqtayi nazardan, chatbot yoki avtomatik modul tomonidan yuborilgan oferta, tasdiqlangan buyurtma yoki qaytarib berish sharti alohida “algoritm irodasi” emas, balki sotuvchi yoki platforma operatorining oldindan dasturlashtirilgan huquqiy xatti-harakati sifatida ko‘rilishi kerak. Elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzo haqidagi qonunlar ham elektron muhitdagi xabar va hujjatlarga yuridik ahamiyat beradi <sup>8</sup>. Demak, SI ishtirokidagi xatolar shartnoma haqiqiy emasligi masalasidan ko‘ra, ko‘proq axborot berishdagi nuqson, noto‘g‘ri interfeys dizayni, chalg‘ituvchi amaliyot yoki lozim darajadagi ehtiyotkorlik burchining buzilishi sifatida malakalanishi kerak.

Bu yondashuv ikki sababga ko‘ra afzal. Birinchidan, u elektron bitimlar barqarorligini saqlaydi: har bir algoritmik xato avtomatik ravishda bitimni yaroqsiz qilmaydi. Ikkinchidan, u real javobgar shaxsni aniqlash imkonini beradi: kim tizim parametrlarini belgilagan bo‘lsa, kim foydalanuvchi bilan shartnomaga kirgan bo‘lsa yoki kim avtomatlashtirilgan qarordan iqtisodiy foyda olgan bo‘lsa, xususiy huquqiy oqibatlar asosan o‘sha subyekt zimmasiga yuklanadi.

Elektron tijoratning amaldagi modeli platforma operatorini ko‘pincha “faqat vositachi” sifatida tasvirlaydi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yilgi 885-son qaror platforma operatorining funksiyalarini ancha keng ifodalaydi: buyurtmalarni qabul qilish va qayta ishlash, narxlarni e‘lon qilish, shaxsiy kabinet yuritish, to‘lovlarni qabul qilish va nazorat qilish, mablag‘larni deponentlash (eskrou), sharh va reytinglarni yaratish, tovar sifati

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-son Qonuni “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-165079>, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-793-son Qonuni “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-6234904>.

ustidan nazorat, statistik ma'lumotlarni tayyorlash, ma'lumotlarni saqlash va oshkor qilish kabi vazifalar operatorning bitim arxitekturasida faol rol o'ynayotganini ko'rsatadi <sup>9</sup>. Shuning uchun javobgarlikni baholashda formal "vositachi" yorlig'i emas, balki platformaning funksional roli mezon bo'lishi kerak.

Maqolada platforma javobgarligini aniqlash uchun "nazorat va iqtisodiy manfaat" testi taklif qilinadi. Agar platforma algoritmik tavsiya, narxlashtirish, reyting yoki tranzaksiyani bloklash mexanizmini belgilasa, shu mexanizmning huquqiy oqibatlari uchun ehtiyotkorlikning yuqoriroq standartini ko'tarishi lozim. Xuddi shuningdek, agar platforma komissiya olsa, foydalanuvchi oqimini boshqarsa, sharhlar va reytinglarni saralasa yoki tranzaksiya xavfsizligi bo'yicha xizmat ko'rsatsa, u natijaviy risklardan butunlay chetga chiqib ketolmaydi. YI DSA ham onlayn platformalarga ma'lum darajadagi hisobdorlik va xavflarni boshqarish yuklaydi <sup>10</sup>.

Bu yerda muhim jihat shuki, platforma javobgarligi har doim qat'iy (strict liability) bo'lishi shart emas. Biroq u mutlaq neytrallik da'vosiga ham tayanmasligi kerak. Amaliy jihatdan, platforma va sotuvchi o'rtasidagi shartnomalarda SI bilan bog'liq risklar aniq taqsimlanishi, qaysi taraf ma'lumotlarning sifati, tavsiyaning konfiguratsiyasi, reklama parametrlari, qaytarish jarayoni yoki iste'molchiga ochiq qilinishi lozim bo'lgan axborot uchun javobgar ekanligi ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-son qarori "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-/7282643>

<sup>10</sup> Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market for Digital Services <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj/eng>

Elektron tijoratdagi SI tizimlari, odatda, foydalanuvchining qidiruv tarixi, xarid odatlari, to'lov intizomi, geolokatsiyasi, qurilma ma'lumotlari va boshqa profillash elementlari asosida ishlaydi. Shu sababli shaxsga doir ma'lumotlar huquqiy rejimi bu sohada yordamchi emas, balki markaziy institut hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ma'lumotlarga ishlov berishning maqsadi oldindan belgilangan bo'lishi, u ma'lumotlar yig'ilgan paytda bildirgan maqsadlarga muvofiq bo'lishi, maqsad o'zgarsa esa tegishli rozilik olinishi kerak <sup>11</sup>. O'zbekiston Respublikasining 2026-yilgi O'RQ-1115-son Qonun esa aynan SI yordamida qonunga xilof ishlov berish masalasiga javobgarlik mexanizmini yaqinlashtirdi <sup>12</sup>.

Bu normativ asosdan kelib chiqib, maqolada "ma'lumotlar bo'yicha ehtiyotkorlik majburiyati" kategoriyasi ilgari suriladi. Mazkur majburiyatga ko'ra, platforma yoki sotuvchi nafaqat rozilik matnini taqdim etishi, balki ishlov berish maqsadlari, tavsiyaning asosiy mezonlari, narx yoki reytingga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ma'lumotlar uchinchi shaxslarga uzatilishi va avtomatlashtirilgan qaror qo'llanayotganini foydalanuvchiga tushunarli ko'rinishda yetkazishi kerak. Bunday model shaffoflikni "algoritm kodini to'liq ochish" sifatida emas, balki foydalanuvchi qaroriga sezilarli ta'sir qiluvchi omillarni oshkor etish - ya'ni funksional shaffoflik sifatida talqin etadi.

YI huquqida ham aynan shunday tendensiya kuzatiladi. GDPR ma'lumotlarga ishlov berishda qonuniylik, maqsadga muvofiqlik va xavflarga

<sup>11</sup> . O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son Qonuni "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4396419>.

<sup>12</sup> . O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O'RQ-1115-son Qonuni "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-8008401>.

mutanosib himoya choralarini talab qiladi <sup>13</sup>. AI Act esa ayrim SI tizimlari uchun riskka asoslangan va shaffoflikka yo‘naltirilgan majburiyatlar tizimini belgilaydi <sup>14</sup>. Shuning uchun O‘zbekiston qonunchiligi doirasida ham algoritmik shaffoflik va ma’lumotlar bo‘yicha ehtiyotkorlik majburiyati iste’molchi huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi umumiy me’yorlar bilan birgalikda qo‘llanishi lozim.

**1-jadval. Elektron tijoratda SI bilan bog‘liq asosiy xususiy-huquqiy risklar**

SI qo‘llaniladigan holat	Asosiy huquqiy risk	Tavsiya etiladigan yondashuv
Chatbot yoki avtomatik buyurtma moduli	Oferta va aksept mazmunining noaniqligi, chalg‘ituvchi interfeys, noto‘g‘ri ochiqdash.	Xabarni platforma yoki sotuvchining huquqiy xatti-harakati deb baholash; minimal ochiqdash standarti belgilash.
Dinamik narxlash	Nohaq amaliyot, tushunarsiz farqlash, iste’molchining iqtisodiy xulqiga yashirin ta’sir.	Narxga ta’sir etuvchi omillar toifasini ko‘rsatish; nohaq amaliyotga qarshi iste’molchi himoyasini kuchaytirish.
Reyting va tavsiya	Sharhlarni	Reyting va tavsiyaning

<sup>13</sup> Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>.

<sup>14</sup> Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng>

SI qo'llaniladigan holat	Asosiy huquqiy risk	Tavsiya yondashuv	etiladigan
algoritmhlari	manipulyatsiya qilish, noto'g'ri ko'rinuvchanlik, platforma betarafligining buzilishi.	asosiy ochiqlash; audit izi va ichki nazorat joriy etish.	mezonlarini
Firibgarlikni aniqlash va avtomatik bloklash	Qonuniy tranzaksiyani rad etish, mablag'ni ushlab turish, zarar va sababiy bog'liqlikni isbotlash qiyinligi.	Qarorni qayta ko'rib chiqish mexanizmi, foydalanuvchiga izoh berish va kompensatsiya tartibini belgilash.	
Profiling va targeting	Shaxsga doir ma'lumotlardan ortiqcha foydalanish, rozilikning formal tus olishi, uchinchi shaxsga uzatish xavfi.	Ma'lumotlar bo'yicha ehtiyotkorlik majburiyati; maqsadga muvofiqlik va minimalizm talablarini qat'iy qo'llash.	

SI bilan bog'liq eng murakkab masalalardan biri - zarar yetgan taqdirda sababiy bog'liqlik va aybni isbotlashdir. Masalan, algoritmik skoring tizimi buyurtmani bloklasa yoki firibgarlik filtri tufayli to'lov asossiz rad etilsa, iste'molchi nimaning xato ishlaganini bilmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, tavsiya tizimidagi yashirin parametrlar tufayli foydalanuvchi ma'lum mahsulotni tanlagan bo'lsa, keyinchalik zarar aynan qaysi bo'g'indan kelib chiqqanini isbotlash qiyinlashadi. Pasquale "qora quti" jamiyati haqidagi tadqiqotida

algoritmik tizimlarning tashqi shaxs uchun yopiq bo'lishi bozor va huquqiy nazoratni murakkablashtirishini ko'rsatadi <sup>15</sup>.

Bunday sharoitda umumiy qoida sifatida qat'iy javobgarlikni barcha holatlarga tatbiq etish ehtiyotkor yechim emas. Ammo isbot yukini butunlay zaif taraf zimmasiga tashlab qo'yish ham protsessual adolatga zid. Shuning uchun maqolada muvozanatli yondashuv taklif etiladi: agar platforma yoki sotuvchi avtomatlashtirilgan qaror iste'molchining huquqiy yoki iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, u minimal izoh berish, audit izi saqlash va inson tomonidan qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratishi kerak. Bunda zarar to'liq isbotlanmasa ham, qarorni tushuntirib bera olmaslikning o'zi ehtiyotkorlik standartiga rioya qilinmaganini ko'rsatuvchi kuchli dalil sifatida baholanishi mumkin.

### **NATIJALAR**

Birinchi taklif - "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga SI vositasida shakllantirilgan tavsiya, dinamik narxlash, reyting va avtomatik bloklash qo'llanilganda iste'molchiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni minimal darajada oshkor etish majburiyatini kiritishdir. Bu oshkor etish algoritm kodini emas, qarorga ta'sir etuvchi omillar toifasini, avtomatlashtirilgan qaror qo'llanganini va foydalanuvchining shikoyat mexanizmini bilishini ta'minlashi kerak.

Ikkinchi taklif - platforma operatorining xususiy-huquqiy maqomini funksional mezonlar asosida aniqlash. Agar platforma mahsulot ko'rinuvchanligini belgilasa, narx va tranzaksiya oqimiga ta'sir etsa, sharhlarni saralasa, mablag'larni eskrouda ushlasa yoki tovar sifatini nazorat qilsa, u faqat texnik vositachi sifatida

<sup>15</sup> Pasquale F. *The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2015. 320 p.

emas, balki oshirilgan ehtiyotkorlik burchiga ega subyekt sifatida baholanishi kerak.

Uchinchi taklif - “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun va tegishli ikkilamchi hujjatlarda elektron tijorat uchun alohida qo‘llash qoidalarini ishlab chiqishdir. Unda profiling, tavsiya tizimlari, dinamik narxlash, uchinchi shaxs analitikasi va reklama targetingiga oid maqsadga muvofiqlik, rozilik va ma’lumotlarni minimallashtirish mezonlari batafsil belgilanishi lozim.

### **XULOSA**

Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanish shartnoma tuzish va bajarish texnikasini sezilarli o‘zgartirmoqda, biroq bu o‘zgarish xususiy huquqning asosiy tamoyillarini bekor qilmaydi. Aksincha, ularni yangicha texnologik sharoitga mos talqin etishni talab qiladi. SI elektron tijoratda alohida huquq subyekti emas, balki shartnoma tarafining iqtisodiy xatti-harakatini shakllantiruvchi va bitimni bajarishga yordam beruvchi instrument sifatida ko‘rilishi kerak. Shu bois javobgarlik algoritmnining o‘ziga emas, uni nazorat qiluvchi va undan manfaat ko‘ruvchi subyektlarga biriktirilishi lozim.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda sud amaliyoti, standart shartlar, platforma kompayensi va transchegaraviy elektron bitimlarga doir maxsus tadqiqotlar zarur. Xususan, O‘zbekiston huquqida elektron tijorat platformalarining real funksional rolini inobatga olgan holda javobgarlik mezonlarini ishlab chiqish, SI yordamida qabul qilingan qarorlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish mexanizmlarini joriy etish va iste‘molchi uchun tushunarli shaffoflik standartlarini belgilash huquqiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-792-son Qonuni “Elektron tijorat to‘g‘risida”. <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Birinchi va ikkinchi qismlar. LEX.UZ. URL: <https://lex.uz/docs/-111189> <https://lex.uz/docs/-180552>.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 221-I-son Qonuni “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-4704>.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son Qonuni “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”.: <https://lex.uz/acts/-4396419>.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-son Qonuni “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-165079>.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-793-son Qonuni “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-6234904>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-7282643>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-7158604>.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonuni “Sun‘iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”. <https://lex.uz/uz/docs/-8008401>.

10. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng>; <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/regulatory-framework-ai>.
11. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation): <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>.
12. Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market for Digital Services (Digital Services Act). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj/eng>.
13. Pasquale F. The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2015. 320 p.